

GTAR 16.21.21

Ilmiy maqola

M.K. Hakimova*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
Toshkent, O'zbekiston**(E-mail: xakimova197621@gmail.com)***Milliy Tafakkurning Abstrkat Leksika Shakllanishiga Ta'siri**

Annotatsiya. Til lug'ati muntazam ravishda boyib boradi va abstrakt so'zlar soni ortib boradi. Agar til taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida lug'aviy tarkib asosan konkret so'zlardan iborat bo'lgan bo'lsa, keyingi davrlarda u abstrakt so'zlar bilan boyiy boshladi. Inson tafakkurining abstraksiyalash faoliyati takomillashuvi natijasida tilda abstrakt so'zlar shakllandi va mazkur jarayonning uzluksiz rivoji til leksik tarkibining abstrakt leksik birliklar bilan to'lib borishini ta'minladi. Belgini va munosabatni obyektidan ajratilgan holda anglash, bevosita kuzatishdan tashqaridagi hodisa va mohiyatlarni idrok etish, insonning ma'naviy-axloqiy olamining rivoji abstrakt tafakkur bilan chambarchas bog'liqdir.

Til lug'atini abstrakt so'zlar bilan boyitishda asosiy omil – inson omili bo'lib, zamonaviy insoniyatning jadal taraqqiyoti yangi abstrakt so'zlarning vujudga kelishini belgilaydi. Buning sabablari sifatida dunyo va inson haqidagi bilim va tasavvurlarning tobora murakkablashuvi, insonning ruhiy-ma'naviy olamining takomillashuvi, davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning rivoji, keng qamrovli axborotni ixcham shakllarda ifodalash ehtiyojining ortishi, texnologiya imkoniyatlari tufayli videomahsulotlarning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi, internet, kompyuter texnologiyalari va kosmonavtika sohasidagi yutuqlar ko'rsatib o'tiladi.

Maqolada abstrakt so'zlarning shakllanishida inson omilining o'rni va ularning til lug'atidagi mavqei aniqlanadi. Abstrakt so'zlarning hosil bo'lishida ratsional bilishning roli yoritib beriladi. Inson omilini belgilash maqsadida taraqqiyot darajasi past bo'lgan jamiyatlar tilida abstrakt tushunchalarni nomlash xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek xalqining ibtidoiy mental xususiyatlarining tilda ifodalanishiga doir misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: antropotsentrizm, abstraksiya, emotsional bilish, mental bilish, mentalitet, lug'at, abstrakt so'zlar

DOI: <https://doi.org/10.71078/g6m4xh11>

Qabul qilindi: 30.11.2025; Tasdiqlangan: 15.12.2025; Onlayn mavjud: 25.12.2025.

Kirish

Til taraqqiyoti insoniyat tamadduni, aqliy, ruhiy olamining shakllanishini o'zida aks ettiradi. Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabati chuqurlashib, olamni va o'zini anglash jarayoni ham murakkablashib bordi. Bunday evolyusion hodisalar, albatta, tilda o'z ifodasini topib boradi. Tilda abstrakt so'zlarning hosil bo'lishi ham (konkret so'zlardan keyinroq) yuqoridagi fikrimizning dalilidir. Abstrakt so'zlar inson fikrlashi taraqqiyotining quyiroq bosqichida shakllangan abstraksiya jarayonining mahsulidir.

Tadqiqotning maqsadi. Til leksikasining abstrakt so'zlar bilan to'lib borishi inson tafakkurining rivojlanishi bilan bog'liq ekanligini ochib berishdan iborat. Millat tafakkur darajasining taraqqiyoti natijasida tilda murakkab semantikali abstrakt so'zlar vujudga kelishini aniqlash.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqotda dialektikaning bilish nazariyasi, tilshunoslikning qiyosiy, tavsifiy, sistem, komponent tahlil metodlaridan, konseptual-kognitiv tahlil usullaridan foydalanildi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi

Abstraksiya va uning turlari, abstraksiya jarayoni hamda tushunchalarning shakllanishi, abstraksiyaning tadrijiy taraqqiyoti kabi masalalar D.P. Gorskiy tomonidan monografik planda tadqiq etilgan (Горский, 1961). L.V. Kalinina rus tilidagi konkret, abstrakt, jamlovchi otlar, modda nomlarining ajratilishini morfologik, sintaktik, so'z yasalishi va semantik omillar asosida o'rgangan bo'lsa (КАЛИНИНА, 2009: 339), L.V. Brikotnina ilmiy ishi ingliz tilida belgi-xususiyat bildiruvchi abstrakt nomlarning semantikasi va sintaktik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan (БРИКОТНИНА, 2005: 190).

Munozara va tahlil

Insonlar, avvalo, olamni sezgi a'zolari yordamida bilganlar. Sezgi a'zolari yordamida o'zlashtirilgan olamning hissiy manzarasi insoniyatga muhitga moslashish, muayyan sharoitda yashab ketish imkonini berdi. Lekin taraqqiy etish uchun hissiy bilishning o'zi yetarli emas edi. A.V. Brushlinskiyning ta'kidlashicha, sezgi a'zolari orqali hosil qilingan olamning hissiy manzarasi juda zarur, lekin predmet va hodisalarni, ularning mohiyatini, o'zaro munosabatlarini chuqur, har tomonlama o'rganish uchun yetarli emas (БРУШЛИНСКИЙ, 1986: 323). Shu tariqa bilishning murakkab shakli, aqliy bilish, xususan, abstraksiya vujudga keldi.

«Abstraksiya» termini birinchi bo'lib falsafaga oid asarlarda ishlatilgan. «Abstraksiya» ilk bor qadimgi Yunon faylasufi Aristotel tomonidan qo'llangan. Rim faylasufi Boesiy (Anatsiy Manliy Severin, 480-524) ilmiy muomalaga kiritgan.

Abstraksiya falsafiy gnoseologik masalalardan bo'lib, mazkur termin ostida uchta o'zaro bog'liq hodisa tushuniladi:

1. Bilish shakli. Abstraksiya bilish shakli sifatida predmet yoki hodisaning muayyan bir xususiyat va munosabatlarini fikran ajratish jarayoni. Abstraksiyalash jarayoni.

2. Abstraksiya mahsuli. Abstraksiya termini abstraksiyalash jarayonining mahsuli, natijasi uchun ham qo'llanadi: abstrakt predmet.

Ilmiy tekshirish metodi. Abstraksiya tekshirish metodi sifatida ba'zi hodisa, jarayon, predmetlarni o'rganishda ularning ahamiyatli bo'lmagan tomon va xususiyatlarini hisobga olmaslikka asoslangan. Shunda tadqiqotchining diqqati qaratilgan jihat va xususiyat aqliy ajratilib, «sof holatda» o'rganiladi (Тулєнов, Гофуров, 1997: 82).

Abstraksiya narsa va hodisalarning xususiyat va munosabatlarini boshqalaridan aqliy ajratish operatsiyasidir. V. Kemerovning falsafiy ensiklopediyasida berilgan ta'rif esa ko'proq ilmiy tekshirish metodini o'zida aks ettiradi: «Abstraksiya nazariy va amaliy vazifalarni yechish, ma'naviy masalalarni anglash yo'lida umumiy, o'ziga xos va universal xususiyatlarni alohida o'rganish maqsadida biror-bir xususiyat, munosabatlarni ob'ektidan aqliy ajratish jarayonidir. Abstraksiya ushbu jarayonning natijasi hamdir (Кемєров, 1998: 21).

Tilshunoslikka oid izohli lug'atlarda esa abstraksiya so'zining ma'nosiga shunday ta'riflar beriladi:

Abstraksiya. 1. Bilishda narsa, hodisalarning muhim va muayyan belgi va qonuniyatlarini ajratish, bo'rttirib ko'rsatish maqsadida ularning juz'iy, ikkinchi darajali tomonlari yoki bog'lanishlaridan xayolan uzoqlashib fikr yuritishdir (Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006: 28).

Abstraksiya – predmet yoki hodisaning ahamiyatli belgilarini ajratish uchun u yoki bu ahamiyatli bo'lmagan jihat, xususiyat, aloqalarini fikran (xayolan) e'tibordan soqit qilishdir.

«Abstraksiya jarayonining natijasida turlicha fikrlar vujudga keladi. Masalan, tushunchalar

(inson, hayvon, o'simlik ...), «abstrakt predmet» termini bilan nomlanuvchi predmetlarning alohida xususiyat va munosabatlari haqidagi fikrlar (oqlik, yetti, hajm, uzunlik, «teskari proporsional bog'liqlik» ...), ideal ob'ektlar haqidagi fikrlar ("absolyut qayishqoq tana", nuqta)» (Горский, 1961: 21). Abstraksiya natijalarining turlicha ekanligi, jarayonning o'zi ham har xil ko'rinishlarda mavjudligini anglatadi. Abstraksiyaning bir necha turlari bo'lib, asosiylari quyidagilardir:

- sodda hissiy abstraksiya – predmet yoki hodisaning ba'zi bir xususiyat va sifatlarini ajratish uchun boshqa xususiyat va sifatleri e'tibordan soqit qilinadi. Masalan, predmetning rangi uning shaklidan ajratiladi yoki aksincha. Voqelik cheksiz xilma-xillikka ega bo'lib, inson idroki uning barcha tomonlarini qamrab ololmaydi. Shu sababli sodda hissiy abstraksiya har qanday idrok jarayonida yuz beradi.

- Umumlashtiruvchi abstraksiya deb predmetning o'xshamagan, farqli xususiyatlaridan uzoqlashib va bir vaqtning o'zida o'xshash, bir xil, umumiy xususiyatlarini ajratishga aytiladi. Mazkur abstraksiya natijasida tushuncha shakllanadi. Ma'lumki, tushunchada predmetlarning umumiy, muhim belgilari aks etadi.

- Ideallashtirish – real empirik hodisalarni ularning real kamchiliklaridan ajratgan holda ideallashtirish sxemaga solish. Buning natijasida ideal ob'ektlar haqidagi tushunchalar shakllanadi. Masalan, «ideal jamiyat», «ideal gaz» kabi.

- Ayiruvchi (izolyatsiyalovchi) abstraksiya muayyan xususiyat va munosabatlarni predmetdan yoki boshqa xususiyatlaridan ajratish jarayonidir. Abstraksiyaning bu turi natijasida «abstrakt predmet» hosil bo'ladi: go'zallik, qattqlik kabi. Mazkur abstraksiyada ham umumlashtirish mavjud bo'lsa-da, farqli tomoni shundaki, ajratilayotgan xususiyat va munosabatlar fikran predmetlashtiriladi, moddiy tashuvchisidan (egasidan) alohida predmet sifatida idrok qilinadi (Горский, 1961: 24).

Abstraksiya bilish shakli va uning natijasi sifatida inson tafakkurining muhim xususiyatlaridan biridir. Bilish jarayonida biz narsaning hamma tomonlarini, xususiyatini, sifatini, uning boshqa narsa va hodisalar bilan bo'lgan son-sanoqsiz munosabatlarini birdan qamrab ololmaymiz. Buyumni yaxlit holda, har tomonlama tahlil qilish yordamida chuqur o'rganish uchun uni fikran parchalab, bo'lib yuborish asosida muhim xususiyat, aloqa va munosabatlarini aniqlash lozim. Ya'ni narsaning alohida bir xususiyatini uning boshqa xususiyatlaridan fikran ajratish va uning barcha boshqa xususiyatlari, sifatlaridan diqqat-e'tiborni vaqtincha uzoqlashtirish kerak yoki boshqacha aytganda, narsaning ikkinchi darajali muayyan jihatlaridan uzoqlashib, uning muhim belgilari ajratiladi.

Abstraksiya hayotimizning har bir jabhasida, har bir lahzada bilish shakli sifatida mavjuddir. Masalan, biz kimningdir ma'naviyatini tahlil qilganimizda, jismoniy xususiyatlarini; tashqi ko'rinishi haqida fikr yuritganda, ichki olamini e'tiborga olmaymiz. Mana shu bilish uchun ahamiyatli jihatning muhim bo'lmagan jihatdan fikran ajratib olish abstraksiyadir.

Til juda murakkab hodisa bo'lib, uning mavjudligi, mohiyati ko'plab mezonlar bilan o'lchanadi. N. Mahmudov ta'kidlaganidek, «Odam bilan bog'liq hodisalar orasida tilday murakkab, muhtasham va muhtaram boshqa bir hodisa yo'q. Uning murakkabligi tilsim qadardir... Ushbu murakkab hodisani tadqiq qilish ham oson kechmaydi. Necha ming yillardan beri ne-ne yorug' aql egalari til tilsimining sanoqsiz jumboqlarini yechish yo'lida sa'y-harakat qiladi, tinimsiz izlanadi, ammo bu tilsim bag'ridagi sinoatlar osonlikcha aqlga bo'y bermaydi» (Махмудов, 2017: 3).

Tilshunos serqirra tabiatga ega tilning muayyan birligini yoki xususiyatini tadqiq qilar ekan, u ushbu tadqiqot uchun muhim bo'lmagan jihatlaridan abstraksiyalashishi lozim. Aks holda ilmiy maqsadga erishilmaydi, ob'ektning mohiyati ochilmay qolaveradi. Masalan, «fonema» birligi fenomen sifatida tovushning lisoniy-funksional belgilaridan iborat. Tabiatan «a» fonemasi mavjud emas. «A» tovushi bor va u «a» fonemasidan farqli hodisa. «A» tovushi cho'ziq yoki qisqa, past yoki baland, g'amgin yoki quvnoq ohangda talaffuz qilinishi mumkin.

O'zbeklar yiqilganda, hayron bo'lganda yoki so'roq ma'nosini anglatish uchun ham «a» tovushini talaffuz qiladi. Agar biz «a» tovushini tadqiq qilmoqchi bo'lsak, uni fizikaviy, psixologik, musiqaviy nuqtai nazarlardan ham o'rganishimiz lozim. Lekin tilshunos uchun tovushning bu xususiyatlari muhim emas. Tilshunos uchun tovushning lisoniy vazifa bajarishi ahamiyatlidir. Shu sababli tovushning lisoniy xususiyatlari lingvistika uchun muhim bo'lmagan jihatlaridan abstraksiyalangan va u «fonema» termini ostida tadqiq qilinadi.

S. Shaumyaning «Zamonaviy tilshunoslikda abstraksiya» nomli maqolasida lisoniy abstraksiya falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Maqola muallifining fikricha, boshqa soha tadqiqotchilari uchun yordam beruvchi mikroskoplar, kimyoviy reaktivlar kabi texnik vositalar tilshunos uchun yordam bera olmaydi. Tilning mohiyatini ochish uchun faqat abstraksiya jarayoni bilish metodi sifatida yordamga keladi. Til birliklari, jumladan, fonema, ideallashtiruvchi abstraksiya natijasi – ideal tovush sifatida o'rganiladi. Zero, har bir tovushning o'ziga xosliklari, nutqiy qo'llanishlari, o'zaro ta'sirlari, ottenkalari, talaffuz qilayotgan kishining fiziologik xususiyatlari e'tibordan soqit qilinib, tilshunos ongli ravishda o'zi yaratgan ideal fonema birligini tadqiq qiladi (Ильин, 2002: 35). Uning bu qarashlariga Sh.Rahmatullaevning quyidagi fikrlari hamohangdir: «Lisoniy birlik sifatida leksema va morfema mavhum birlik hisoblanadi. Miyaning til xotirasi qismida har bir leksemaning, morfemaning alohida ramzi bo'lib, ana shu ramzdagi axborotdan foydalanish qoidalar ham mavjud; har ikkisi asosida leksemalarning, morfemalarning talaffuz birligi holati yuzaga keltiriladi; leksema va morfema ana shunday nutqiy birlik holatida moddiy birlik, segment birlik sifatida namoyon bo'ladi» (Rahmatullayev, 2006: 6).

E. Byuissans maqolalarining birida har qanday til fakti abstrakt mohiyatga ega bo'lib, ulardagi abstraksiyaning darajasiga ko'ra diskurs nutqqa, til diskursga nisbatan abstrakt; diskurs tilga, nutq diskursga nisbatan konkret degan fikrni ilgari suradi. Olim so'zlarni tashkil etuvchi tovushlarning ohangiga to'xtalar ekan, ayni bir ma'no turlicha ohang bilan aytilishi mumkinligini yoritadi. Masalan, «U qachon keladi?» va «U nimani istaydi?» jumalari bir xil ohang bilan talaffuz qilinishi yoki so'zlovchining ixtiyoriga ko'ra turlicha ohangda aytilishi, bu ohanglar ma'noga ta'sir qilmasligini ta'kidlar ekan, birliklarning lisoniy vazifasini unga ta'sir qilmaydigan xususiyatlardan ajratib o'rganishni lisoniy funksional abstraksiya deb belgilaydi (Бюиссанс, 2016: 210).

Til va nutq bir-biri bilan abstraktlik va konkretlik munosabatida ekanligi ma'lum bo'lgani holda, ilmiy tadqiqot uchun har ikkisi ham birdek muhimligini qayd qilib o'tmoqchimiz. Agar shifokor qandli diabet kasalligining davosini topmoqchi bo'lsa, u o'nlab, yuzlab konkret kasallar bilan ishlaydi. Xuddi shunday tilshunos muayyan lisoniy hodisani tadqiq qilmoqchi bo'lsa, albatta, nutqiy voqelanishini ham o'rganadi. Masalan, so'zning leksik ma'nosini shaklidan ajratib, semema sifatida o'rganamiz, lekin uning mohiyatini nutqdan ajratgan holda tadqiq etib bo'lmaydi. Lekin ilmiy maqsaddan kelib chiqib, bu ikki jihatdan o'rni bilan abstraksiyalashish mumkin.

Abstraksiya tafakkurda yuz beradigan jarayondir. Tafakkurning oynasi esa til. Tilda abstraksiya jarayonining natijalari aks etadi. Abstraksiyaning turli ko'rinishlari natijasida tushunchalar, abstrakt predmetlar vujudga keladi va ular tilda nomga ega bo'ladi. Har qanday tilning lug'at tarkibida ayiruvchi abstraksiya natijasida shakllangan abstrakt so'zlar mavjud bo'lib, tadqiqotchi D.Abdullaeva mazkur holatni "semantik abstraksiya" termini bilan ataydi (Абдуллаева, 2010: 45).

Lug'at tarkibi tilning doimo o'zgarib turuvchi, eng sezgir sohasi bo'lib, unda til egalarining hayotidagi barcha o'zgarishlar, jumladan, aqliy salohiyatining rivojlanishi, fikrlash taraqqiyoti ham o'z aksini topadi. Lug'at tarkib yangi o'rganilgan realliklar, kashf qilingan artefaktlar nomi bilan birga doimiy ravishda abstrakt so'zlar hisobiga boyib boradi. Til tarixiga asoslanib aytish mumkinki, til taraqqiyotining dastlabki davrlarida lug'at tarkibi, asosan, konkret so'zlardan tashkil topgan bo'lsa, keyinchalik esa abstrakt so'zlar bilan boyib bordi.

Abstraksiya jarayoni bilan shug'ullangan rus faylasufi D. Gorskiy: «Til tarixi insoniyat abstraksiyalash va umumlashtirish faoliyatining doimiy rivojlanishidan darak beradi. Ijtimoiy taraqqiyoti nisbatan quyiroq bosqichda bo'lgan xalqlar tilida saqlangan xususiyatlar ularning abstraksiyalash va umumlashtirish faoliyati zamonaviy insonlarnikidan farq qilishidan dalolat beradi», – deb yozadi (Горский, 1961: 151).

M. Gorskiyning bu fikrlari ko'plab tilshunoslar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, xantiy tili dialektlarida abstrakt tushunchalarning lisoniy reallashuvi bo'yicha tadqiqot olib borgan O. Potanina eskimos tilida abstrakt so'zlar juda kam bo'lgan holda, muz va qorning xar xil turlarini nomlash uchun qirqqa yaqin so'zlar mavjudligini qayd etib, aput «yerda yotgan qor», qana «yog'ayotgan qor», piqsirpoq «dovul paytidagi qor», qimuqsuq «qor uyumi» tushunchalari uchun qo'llanishini yozadi (Потанина, 2006: 73).

O. Пылаева Evenki qabilasida «mavsum» umumiy tushunchasini ifodalovchi so'z mavjud bo'lmagan holatda uning xususiy ko'rinishlari uchun bir qancha so'zlar qo'llanishini ta'kidlaydi. Xugdarpi «yaxshi ov mavsumi», xogdarpi «qalin bo'lmagan qor mavsumi», irkin «bug'ularning teri va shox tashlash mavsumi», xunmilasani «chivin mavsumi», xalgalashani «birinchi kuzgi qor mavsumi» kabi (Пылаева, 2002: 15).

Avstraliyalik aborigenlar tilida daraxt, baliq, qush kabi tur nomlari mavjud emas. Ularda faqat daraxt, baliq, qushlarning har bir xillari uchun alohida nomlar mavjud. Yangi Zelandiyaning Maori qabilasida erkak va ayol daraxtlarning muayyan turlarini atovchi bir qancha nomlarga ega. Ular daraxtlarning o'sish jarayonida barglarning hajmi o'zgarishi bilan bog'liq turli davrlaridagi ko'rinishlarini alohida nomlar bilan ataydilar. Ular yana daraxt gullarining maxsus nomlariga, ochilib ulgurmagan barg va mevalarning alohida nomlariga ega. (Горский, 1961: 151).

Yuqoridagi tillar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, til taraqqiyotining dastlabki bosqichida, so'zlar, asosan, tor hajmli konkret tushunchalarni ifodalagan. Ularning lug'at tarkibida abstrakt so'zlar kam bo'lgan.

Lekin shu o'rinda aytib o'tish joizki, tilda ma'lum bir turning xususiy ko'rinishlarini nomlovchi so'zlarning ko'pligi ushbu til egalarining abstraksiya darajalari pastligini belgilovchi asosiy omil bo'la olmaydi. Bunday holat mazkur xalqning hayot tarzi bilan ham belgilanadi. Masalan, eskimoslar doimiy sovuq muhitda yashaydi va tilida ko'plab qor bilan bog'liq nominatsiyalarning mavjudligi tabiiy. Masalan, o'zbek tilida qoramolning turini nomlovchi o'nlab so'zlar mavjud bo'lib, bu o'zbek xalqi abstraksiya darajasining pastligidan emas, balki turmush tarzining o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Eyrning tadqiqotlariga yana murojaat qiladigan bo'lsak, «Tasmaniyaliklarda ajratilgan, abstrakt (otvlechenный) tushunchalar mavjud emas edi... Ular qattiq, tinch, qaynoq, sovuq, uzun, qisqa, dumaloq kabi tushunchalarni ajratish qobiliyatiga ega emas edilar. Ular qattiq tushunchasini ifodalash uchun «tosh kabi», uzun tushunchasi uchun «uzunoyoq», dumaloq tushunchasi uchun «oy kabi» birikmalarini qo'llashgan» (Горский, 1961: 153).

Insoniyat belgi va munosabatlarni tashuvchisidan alohida tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lishi bilan tilda eng elementar abstrakt so'zlar paydo bo'la boshladi. Bular, asosan, kundalik hayotdagi hodisalar va doimiy ehtiyojdagi predmetlarning muhim belgilarini ajratish bilan hosil qilingan so'zlardir: sovuq, issiq, qattiq, uzun, qisqa kabi. Bu kabi sodda abstraksiyalarda ajratilgan belgi sezgi a'zolarimiz orqali idrok etiladiki, sovuqlik, issiqlik, qattiqlik teri orqali, uzun-qisqalik belgilari esa ko'z orqali bilinadi. Taraqqiyotning nisbatan keyingi bosqichlarida predmetning belgi va munosabatlari alohida mohiyat sifatida talqin qilinishi oqibatida faqat fikran anglanadigan belgilar ajratildi va abstraksiya darajasi yuqori bo'lgan abstrakt so'zlar shakllana boshladi: hayot, umr, o'lim, tezlik, narx, o'lchov, baxt, quvonch, g'azab, sevgi, muhabbat kabi.

Insoniyat tafakkurining abstraksiyalash bosqichiga o'tishini piktografik yozuv turidan ideografik yozuv turiga o'tishida ham ko'rish mumkin. Piktografik yozuvda konkret narsa-

hodisa to'g'risidagi xabar sodda yetkazilgan bo'lsa-da, abstrakt (mavhum) tushunchalarni yetkazish uchun bu yozuvdan foydalanish qiyin bo'lgan. Shu sababli yozuvning bu turi insonning talabiga to'la javob bera oldi. Shu tariqa ideografik yozuvlar shakllana boshladi, bunda piktogrammalar muayyan narsani emas, g'oyalarni ifodalay boshlagan.

Hozirgi shiddatli va taraqqiy etgan zamonaviy hayotimizda ko'plab abstrakt so'zlar va ma'nolar neologizm sifatida vujudga kelmoqda va yangilik bo'yog'ini yo'qotib umumiste'mol leksikaga aylanib bormoqda: globalashuv, mobillik, tezkorlik. Mustaqillik yillarida tilimizda mavjud abstrakt so'zlar yangicha ma'no kasb etdi, ma'naviyat, mafkura, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, bag'rikenglik, ogohlik, sezgirlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, barkamollik, tadbirkorlik, jonkuyarlik kabi so'zlarning ma'no taraqqiyoti miqdor va sifat o'zgarishlariga uchradi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, til taraqqiy etib borgan sari abstrakt so'zlar soni ko'payib boradi. Eng rivojlangan tillarda abstrakt so'zlar soni kamroq taraqqiy etgan tillarga nisbatan ko'proq bo'ladi. Yoki muayyan tilda abstrakt so'zlarning ko'pligi mazkur til egalari bo'lgan xalqning chuqur salohiyatga, yuksak ma'naviyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek xalqida ota va qiz munosabati juda muqaddas sanaladi. Otalar qizlariga qattiq gapirmaydilar, qizlar esa otasiga tik qaramaydi. Qizlarning otasiga munosabati «hayo» so'zida, otaning qizini himoya qilishi «oriyat» so'zi zamiridagi konseptlarda aks etadi. Yoki «sabr» degan so'zning konseptual yuki juda zalvorli bo'lib, bunda nafaqat «chidam», balki shukronalik, yaxshilikka ishonch va iymon kabi tashkil etuvchilar mavjud. «Halollik» konseptida ham diniy tushuncha, ham etnik tushuncha, ham tarbiyaviy tushuncha mavjud. Unda birovning haqiga xiyonat qilmaslik, mehnat qilib yashash kerakligi haqidagi tarbiyaviy yuk ham bor. «Tarbiya» konseptining milliy xususiyatlari o'ziga xos bo'lib, u bu tushunchaga xalqimizning munosabati bilan farqlanadi. Farzandlarni tarbiyalash muqaddas burch ekanligi, bitta bolaga yettita qo'shni tarbiyalovchi ekanligi shular jumlasidandir.

Demak, til lug'at tarkibining abstrakt so'zlar bilan boyib borishiga asosiy sabab – inson omili, antropotsentrik omil ekan.

Antropotsentrizm hozirgi zamonaviy tilshunoslikning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, u tilda inson omilining ahamiyatini ko'rsatib beradi. Zero, til inson tomonidan yaratilgan va inson uchun xizmat qiladi.

Tilda inson omilining ahamiyati xususidagi fikrlar dastlab V.fon Gumboldtning lingvofalsafiy konsepsiyasida uchraydi. Olim til «tashqi olam hodisalari va odamning ichki olami o'rtasidagi olamdir» deb yozgan edi. XX asrning birinchi yarmida tilning struktur tarzda tahlil etilishining ommalashishi natijasida V.Gumboldtning yuqoridagi fikrlari ilmiy ishlarda o'z tasdig'ini topmadi. Lekin XX asrning oxirlariga borib an'anaviy va sistem paradigmada batafsil o'rganilgan lisoniy birliklar va hodisalar tilning egasi bo'lgan inson omili bilan tadqiq qilina boshladi.

Hozirgi kunga kelib olam lisoniy manzarasining zamonaviy jamiyat bilan bir qatorda keskin o'zgargani hech kimga sir emas. Bu esa inson ongining shiddatli taraqqiyoti bilan bog'liq. Til insoniyatning tashqi va ichki olamini qanday bo'lsa, shunday aks ettirishga urinar ekan, insonning tajriba, malaka, bilimining uzluksiz oshishi natijasida olamning lisoniy manzarasi ham tubdan o'zgarib bormoqda. Unda insonning olamni va o'zini anglashi, o'zlashtirishi va o'zgartirishi bilan bog'liq barcha yangiliklar aks etadi. Olamni o'rganishda yangi kashf qilingan realliklar, insonning turli faoliyati natijasida yaratilgan mahsulotlar, aqliy va ruhiy olamimizning takomillashuvi asosida yangi-yangi nominatsiyalar yuzaga keladi.

So'nggi 20 yil ichida barcha tillar qatori o'zbek tilining lug'at tarkibi ham sifat jihatdan o'ziga xos neologizmlar bilan, nutqimiz esa yangi okkazonalizmlar boyib bordi. Neologizmlarning ma'lum qismi esa abstrakt so'zlar hisobiga to'g'ri keladi. Bugungi kunda inson ongining tez taraqqiy etishi bilan birga, olam va odam haqidagi fikrlarimiz, bilimlarimiz ham murakkablashib bormoqda. Tilda esa murakkab bilim va tushunchalarimizni ifodalaydigan leksik birliklar,

jumladan, abstrakt neologizmlar paydo bo'lmoqda. Bu murakkablik neologizm so'zlarning semantik strukturasida ham o'z ifodasini topadiki, so'zda akslanayotgan tushunchaviy, aqliy, kognitiv strukturalarning takomillashganini yana bir karra isbotlaydi.

Mustaqillik davrining dastlabki yillarida neologizm sifatida qaralgan, hozirgi kunda esa til lug'at tarkibidan mustahkam o'rin egallagan mobillik, murosasozlik kabi, ma'no taraqqiyotiga uchragan kurashchanlik, yaratuvchanlik kabi abstrakt so'zlarning murakkab semantikasiga nazar tashlasak, mazkur so'zlar semantikasiga yig'iq propozitsiya, yashirin predikatsiyani yuklash holatlarini ko'rish mumkin. Misol uchun, «kurashchanlik» leksemasining murakkab semantikaga egaligi quyidagi fikrda yaqqol ko'rinadi: «Kurashchanlik – oldiga qo'yilgan siyosiy maqsadlardan voz kechmagan holda, ezgu, bunyodkor va insonparvar g'oyalarni amalga oshirish sari intiluvchanlik».

«Yaratuvchanlik» leksemasining esa semantik yuki so'z birikmasining semantik yukidan ham og'irroqdir: «insonlarning o'z kuch va bilimlariga, malaka va tajribalariga, fan-texnika yangiliklariga tayangan holda ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar va xizmatlar yaratishdan iborat faoliyatlari». Bu kabi murakkab semantikali abstrakt so'zlarning shakllanishi tez taraqqiy etayotgan, shiddatli zamonda katta ma'lumotlarni kichik til birliklari yordamida ifodalash zaruriyatidan kelib chiqadi.

Hozirgi davrda ham jamiyatimizdagi yangilanishlar bilan birga tilimiz yangi abstrakt so'zlarga to'lmoqda. Yoki mavjud abstrakt so'zlarning semantikasi ham sifat, ham miqdor jihatdan taraqqiy etmoqda. Masalan, bugungi kunda innovatsiya so'zining «taraqqiyotga olib keluvchi yangi g'oya» ma'nosi shakllandi. Yoki tashabbus so'zi ham yangicha ma'no yuklari bilan boyidi.

Har kungi hayotimizga bevosita kuzatishdagi olamimizdan farqli olamlar haqidagi axborotlarning kirib kelishi ham lug'at boyligimizni abstrakt so'zlar bilan to'ldiradi. Texnika taraqqiyoti davrida internet orqali doimiy ravishda dunyoning xohlagan nuqtasidan tasvirlar, ma'lumotlar olinmoqda, kosmonavtikaning so'nggi yutuqlari, koinotdagi o'zlashtirishlar keng omma uchun sir bo'lmay qoldi, virtual kino, 3D, 4D, 5D kabi video mahsulotlar hayotimizga kirib keldi. Internet tezligini ta'minlovchi 3J, 4J, 5J kabi o'lchov birliklari paydo bo'ldi. Bu ma'lumotlarni o'zlashtirish, uzoqdagi yoki xayoliy olamlarni anglash esa insondan ko'proq abstrakt mushohadani talab qiladi. Abstrakt mushohada natijasida esa abstrakt so'zlar shakllanadi. Virtual, virtuoz, teleportatsiya, mikro dunyo, makro dunyo kabi abstrakt so'zlar shular jumlasidandir.

Insoniyat sivilizatsiyasi nafaqat fan-texnika taraqqiyoti bilan, balki ma'naviy barkamollik, axloqiy yetuklik, ruhiy poklik kabi kategoriyalar bilan ham belgilanadiki, insonlarning ma'naviy komillik sari talpinishlari natijasida mazkur kategoriyalarni nomlovchi abstrakt so'zlar va abstrakt ma'nolar vujudga keldi: ma'naviyat, mafkura, qadriyat, an'ana, insonparvarlik, bag'rikenglik, barqarorlik, aqidaparastlik...

Xulosa

Har qanday tilning lug'at tarkibida abstrakt so'zlar mavjud bo'ladi va leksika doimiy ravishda bunday so'zlar bilan boyib boradi. Til taraqqiyotining dastlabki davr leksikasi, asosan, konkret so'zlardan iborat bo'lib, u asta-sekinlik bilan abstrakt so'zlar hisobiga ham to'lib borgan degan farazlar mavjud. Bu farazlar insoniyatning abstraksiyalash jarayonlari hissiy bilishdan sal kechroq yuzaga kelganligi bilan dalillanadi.

Til taraqqiy etib borgan sari abstrakt so'zlar soni ko'payib boradi. Eng rivojlangan tillarda abstrakt so'zlar soni kamroq taraqqiy etgan tillarga nisbatan ko'proq bo'ladi. Yoki muayyan tilda abstrakt so'zlarning ko'pligi mazkur til egalari bo'lgan xalqning chuqur salohiyatga, yuksak ma'naviyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Lug'at tarkibning abstrakt so'zlar hisobiga boyib borishining bosh omili inson omili bo'lib, bugungi kundagi insoniyatning shiddatli taraqqiyoti yangi-yangi abstrakt so'zlarni vujudga keltirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Абдуллаева, Д. (2010). *Ўзбек тилида антисемия* (Филол. фан. номз. дисс.). Тошкент.
- Брикотникова, Л.В. (2005). *Специфика семантики абстрактных имен качества и ее экспликация в синтаксисе* (Канд. филол. наук дисс.). Барнаул.
- Брушлинский, А.В. (1986). Мышление. В *Общая психология*. Москва.
- Бюиссанс, Э. (2016). Абстрактное и конкретное в лингвистических фактах: речь–дискурс–язык. В *Political science (RU)*, 3, 209–216.
- Горский, Д.П. (1961). *Вопросы абстракции и образования понятий*. Москва. АН СССР.
- Калинина, Л.В. (2009). *Лексико-грамматические разряды имён существительных как пересекающиеся классы слов* (Докт. филол. наук дисс.). Киров.
- Кемеров, В. (1998). *Философская энциклопедия*. Москва. Панпринт.
- Махмудов, Н. (2017). *Тил тилсими тадқиқи*. Тошкент. Mumtoz so'z.
- Потанина, О.С. (2006). *Способы языковой реализации абстрактных понятий в диалектах хантийского языка* (Канд. филол. наук дисс.). Томск.
- Пылаева, О.Б. (2002). *Лакунарность лексико-семантического поля «природа»* (Автореф. канд. филол. наук дисс.). Кемерово.
- Rahmatullayev, Sh. (2006). *Hozirgi adabiy o'zbek tili (Darslik)*. Toshkent. Universitet.
- Туленов, Ж., & Гофуров, Ю. (1997). *Фалсафа*. Тошкент. Ўқитувчи.
- Фалсафа: қомусий лугат*. (2004). Тошкент. Шарқ.
- Шаумян, С. (2002). Абстракция в современной лингвистике. *Вопросы языкознания*, 1, 34–57.
- Ўзбек тилининг изоҳли лугати (1-жилд)*. (2006). Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

References

- Abdullaeva, D. (2010). *O'zbek tilida antisemya* (Filol. fan. nomz. dissertatsiyasi). Toshkent. [In Uzbek]
- Brikotnina, L.V. (2005). *Spetsifika semantiki abstraktnykh imen kachestva i eye eksplikatsiya v sintaksise* (Kand. filol. nauk dissertatsiyasi). Barnaul. [In Russian]
- Brushlinskiy, A.V. (1986). Myshlenie. In *Obshchaya psikhologiya*. Moskva. [In Russian]
- Byuissans, E. (2016). Abstraknoye i konkretnoye v lingvisticheskikh faktakh: rech'–diskurs–yazyk. In *Political Science (RU)*, 3, 209–216. [In Russian]
- Gorskiy, D.P. (1961). *Voprosy abstraktsii i obrazovaniya ponyatiy*. Moskva. AN SSSR. [In Russian]
- Kalinina, L.V. (2009). *Leksiko-grammaticheskiye razryady imen sushchestvitel'nykh kak peresekayushchiyesya klassy slov* (Dokt. filol. nauk dissertatsiyasi). Kirov. [In Russian]
- Kemerov, V. (1998). *Filosofskaya entsiklopediya*. Moskva. Panprint. [In Russian]
- Mahmudov, N. (2017). *Til tilsimi tadqiqi*. Toshkent. Mumtoz so'z. [In Uzbek]
- Potanina, O.S. (2006). *Sposoby yazykovoy realizatsii abstraktnykh ponyatiy v dialektakh khantiyskogo yazyka* (Kand. filol. nauk dissertatsiyasi). Tomsk. [In Russian]
- Pylaeva, O.B. (2002). *Lakunarnost' leksiko-semanticheskogo polya "priroda"* (Avtoreferat kand. filol. nauk dissertatsiyasi). Kemerovo. [In Russian]
- Rahmatullayev, Sh. (2006). *Hozirgi adabiy o'zbek tili (Darslik)*. Toshkent. Universitet. [In Uzbek]
- Tulenov, Zh., & G'ofurov, Yu. (1997). *Falsafa*. Toshkent. O'qituvchi. [In Uzbek]
- Falsafa: qomusiy lug'at*. (2004). Toshkent. Sharq. [In Uzbek]
- Shaumyan, S. (2002). Abstraktsiya v sovremennoy lingvistike. *Voprosy yazykoznaniya*, 1,

34–57. [In Russian]

O'zbek tilining izohli lug'ati (1-jild). (2006). Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. [In Uzbek]

М.К. ХАКИМОВА

*Өлішер Науаи атындағы Ташкент мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті,
Ташкент, Өзбекстан
(E-mail: hakimova197621@gmail.com)*

Ұлттық ойлау жүйесінің абстрактілі лексиканың қалыптасуына ықпалы

Аңдатпа. Тілдің сөздік қоры үнемі толығып отырады, оның ішінде абстрактілі сөздердің үлесі артып келеді. Тіл дамуының алғашқы кезеңдерінде лексикалық құрам негізінен нақты сөздерден тұрған болса, кейінірек ол абстрактілі сөздермен толығып түседі. Бұл үдеріс адам ойлауының абстракциялау қабілетінің жетілуімен тығыз байланысты. Адамның объектіден тыс белгілер мен қатынастарды тануы, тікелей бақылауға келмейтін құбылыстар мен мәндерді ұғынуы, рухани-адамгершілік әлемінің дамуы абстрактілі сөздердің қалыптасуына негіз болды.

Қазіргі адамзат дамуының қарқынды сипаты жаңа абстракт ұғымдардың пайда болуына әсер етеді. Бұған ойлау мен дүниетанымның күрделенуі, адам мен әлем туралы білімнің тереңдеуі, рухани әлемнің дамуы, мемлекеттік басқару мен экономиканың өркендеуі, ауқымды ақпаратты ықшам түрде жеткізу қажеттілігі, сондай-ақ интернет, компьютерлік технологиялар, аудиовизуалды өнімдер мен ғарыш саласындағы ғылыми-техникалық жетістіктер себеп болып отыр.

Мақалада абстракт сөздердің қалыптасуындағы адам факторының рөлі және олардың сөздік қордағы орны анықталады. Абстракт сөздердің пайда болуындағы рационалдық танымның маңызы көрсетіледі. Адам факторын айқындау мақсатында дамуы төмен халықтар тіліндегі абстракт ұғымдардың аталу ерекшеліктері талданады. Сонымен қатар өзбек халқының бастапқы менталдық ерекшеліктерінің тілдегі көріністеріне мысалдар келтіріледі.

Түйін сөздер: антропоцентризм, абстракция, эмоциялық таным, рационалдық таным, менталитет, сөздік қор, абстракт сөздер.

M.K. Hakimova

*Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoiy,
Tashkent, Uzbekistan
(E-mail: hakimova197621@gmail.com)*

The Influence of National Thinking on the Formation of Abstract Vocabulary

Abstract. The vocabulary of the language is regularly enriched and abstract words are counted. If in the early stages of language development the lexical composition consisted mainly of concrete words, then later it began to be enriched with abstract words. Due to the improvement of the abstracting activity of human thinking, in particular, the formation of abstract words have appeared in the language, and the continuous development of the above ensures the saturation of the lexical composition of the language with abstract words. The ability to comprehend a feature and relationship in isolation from the object, cognition of phenomena and entities beyond direct observation, and the development of the spiritual and moral world.

The main factor in replenishing the vocabulary of a language with abstract words is the

human factor, and rapid development The existence of modern humanity determines the emergence of new abstract words. The reason for this is: the increasing complexity of thoughts and knowledge about the world and man, the improvement of the spiritual world of man, the development of public administration, economics, the increased need to provide extensive information in compact forms, the transition of video products to a qualitatively new level due to the wide range of the possibilities of technology, advances in the field of the Internet, computer technology and astronautics.

This article identifies the role of the human factor in the formation of abstract words, their place in the vocabulary. The role of rational cognition in the formation of abstract words has been identified. In order to define the human factor, the naming of abstract concepts in the language of backward peoples was analyzed. Examples were given of the expression of the raw mental characteristics of the Uzbek people in language.

Keywords: anthropocentrism, abstraction, emotional cognition, mental cognition, mentality, vocabulary, abstract words

Muallif haqida ma'lumot:

Hakimova M.K. – professor, doktor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek Tili va Adabiyoti Universiteti, Toshkent, O'zbekiston. ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2002-7978>

Автор туралы мәлімет:

Хакимова М.К. – профессор, доктор, Әлішер Науаи атындағы Ташкент мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті, Ташкент, Өзбекстан. ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2002-7978>

Information about author:

Hakimova M.K. – Prof. Dr. , Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoiy, Tashkent, Uzbekistan. ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2002-7978>



Бул жұмыс Creative Commons Attribution-Коммерциялық Емес 4.0 Халықаралық лицензиясы бойынша лицензияланған.
This work is licensed under Creative Commons Attribution-Noncommercial 4.0 International License